

Dilafroz XOLIQOVA,

Xalqaro Innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti dotsenti f.f.f.d (PhD) N. Suyarova taqrizi asosida

“UNUTILGAN AYOL” HIKOYASIDA AYOL RUHIYATI TALQINI

Аннотация

Mazkur maqolada iste'dodli yozuvchi Salomat Vafoning “Unutilgan ayol” hikoyasida ayol ruhiyatining badiiy-psixologik talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hikoya, qahramon, ruhiyat, talqin, tahlil, abort, psixologik, jarayon, xotira.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОЙ ПСИХИКИ В ПОВЕСТИ «ЗАБЫТАЯ ЖЕНЩИНА»

Аннотация

В этой статье рассматривается художественно-психологическая интерпретация женской психики в рассказе “Забывтая женщина” талантливой писательницы Саломат Вафо.

Ключевые слова: История, герой, психика, интерпретация, анализ, аборт, психология, процесс, память.

INTERPRETATION OF THE FEMALE MENTALITY IN THE NOVEL “THE FORGOTTEN WOMAN”

Annotation

This article examines the artistic and psychological interpretation of the female psyche in the story “The Forgotten Woman” by the talented writer Salomat Vafo.

Key words: History, hero, psyche, interpretation, analysis, abortion, psychology, process, memory

Kirish. O'zbek badiiy tafakkuri rivojida ayol ijodkorlarning alohida o'rni bor. Tarixdan ma'lumki, Gulbadanbegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi hassos qalb sohibalari mumtoz adabiyot tarixida naqadar yuksak asarlar yaratgan bo'lsa, hozirgi davr o'zbek adabiyotida Zebo Mirzo, Farida Afro'z, Halima Ahmedova, Xosiyat Rustamova, Go'zalbegim, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabi ijodkor ayollar ham shunday noyob asarlar yaratib kelmoqdalar. Adabiyoshunosligimizda ayol ijodkorlar xususida, ularning badiiy asarlari tahlili borasida salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Sababi, ayol ijodkorlarning o'ziga xos olami, tafakkuri, dunyoqarashi mavjud. Ular olamni o'zgacha rakursda idrok qiladilar, olam hodisalari haqida o'zlariga xos fikr yuritadilar. Shu ma'noda, yangi davr adabiyotida o'z o'quvchilarini, muxlislarini topa olgan Salomat Vafoning asarlarini kuzatish joizdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Salomat Vafo nasrning bir qator janrlarida qalam tebratadi. Yozuvchining birinchi kitobi “Ayol” deb nomlangan bo'lib, u 1989-yilda nashr etilgan. Keyingisi esa “O'zini izlayotgan ayol” nomli qissa va hikoyalar to'plami chop etildi. Ko'ramizki, Salomat Vafo o'zi ayol kishi bo'lganligi sababli asarlarida aksar hollarda ayol taqdiri, umri, qismati, ruhiyatini aks ettirishga moyillik ustunlik qiladi. Adibning “Unutilgan ayol” nomli mo'jazzgina hikoyasi ayolni bola oldirish, ya'ni abort qildirish voqeasi tafsilotiga, xususan, ushbu jarayonda ayolning ruhiy holati, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari tasviriga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga loyiq. “Milliy adabiyotimizda abort potologiyasi haqida yozilsa, ehtimol, yozilgandir, ammo uning psixologiyasi haqilgacha estetik obyektga aylangani yo'q edi”. [1.482] Aynan, Salomat Vafoning “Unutilgan ayol” hikoyasida abort psixologiyasi kuchli tasvirlanganligini ko'ramiz.

Hikoya qahramoni unutilgan ayol. Dunyo shoirlari, yozuvchilari muhtaram ayol zotiga yuksak ta'rifu-tavsiflar bitishgan. Hatto mumtoz she'riyatimizning an'anaviy janri hisoblangan “G'azal” atamasining lug'aviy ma'nosi ham arabcha “oshiqona so'z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish” degan ma'nolarni anglatadi. Dunyo olimlari, shoirlari, adiblari bitgan barcha-barcha asarlarda Ona degan zotning ulug'ligi, azizligi, mehribonligi, yagonaligi, bebaholigi xususida fikrlar bayon etilgan. Oilaning fayzi ayol, farzand tarbiyasida ayolning roli beqiyosligi haqida betinim bong uriladi. Olamda jamiki ayol zoti borki, u farzand ko'rishni, uni dunyoga keltirishni, boqishni, tarbiyalashni, mehr berishni, uning timsolida orzu-umidlari ro'yobini ko'rishni istaydi. Shuning uchun u bolani dunyoga keltirishdek mashaqqatli yumushnu zimmasiga qo'rqmay oladi, o'limga tikka bora oladi. Tahlilga tortilgan hikoyada esa, teskari holat. Asarda uning ismi, sharifi berilmagan. Hikoya birinchi shaxs tilidan bayon qilingan. Sarlavhadan keyin “Alla bolam, alla-yo, Osmon bolam, alla-yo. Orzu bolam, alla-yo, Armon bolam, alla-yo” degan epigraf keltirilgan. Bolasini dunyoga keltirishni istamagan va uni oldirib tashlash niyatida kasalxonaga borgan, abort qildirgan va shu jarayonda og'ir ruhiy iztiroblarni qalbidan kechirgan ayol ruhiyati o'quvchini cheksiz iztiroblar girdobiga tashlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hikoya shunday misralar bilan boshlanadi: “Olam beo'xshov jonivorning yo'g'li badaniday to'lqinlanar, yaltirar, qulog'imga ilgari sira eshitmagan shovqin-suronlar kirar, ne voqea sodir bo'lganidan sira his etolmasdim”[2] Farzand-Olloning ne'mati, deya qabul qilishga odatlangan millatimiz ruhiyati shundayki, oilada nechta bola tug'lsa ham, quvonch bilan uni kutib oladi. Bolajon xalqimizda “O'nta bo'lsa, o'rni boshqa”, “O'zini bergan rizqini ham beradi”, “Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor” qabilidagi maqollar nihoyatda ko'p. Va bu kabi maqollarning paydo bo'lganligi va saqlanib asrlardan-asrlarga o'tib kelayotganligi bejiz emas. Bolajonlik millatimizga xos belgilardan biri hisoblanadi.

Hikoyaning dastlabki abzatsidayoq bola oldirishga borayotgan ayolga “Olam beo'xshov jonivorning yo'g'li badaniday” tuyuladi, qulog'iga “ilgari sira eshitmagan shovqin-suronlar” kiradi. Salomat Vafo ayol ruhiyatini nozik ilg'aydi hamda qahramon tasvirida psixologik va tragik holatlarni sinkretik usulda talqin qiladi. “Ich-ichimdan qo'rqayotganimni, bu noma'lum holatda qanday yo'l tutishimni, nega bunday ahvolga tushib qolganimni bilolmayotgandim”[2]. Qahramon ruhiyatidagi beqarorlik, ikkilanish, mavhumlik, qilayotgan ishining mohiyatini his etyaptimi yoki yo'qmi, bilolmaslik - bu ruhiy muvozanatning buzilishidan, bezovtalikdan darak beradi. Adiba abort holatidagi ayol ruhiyatini batafsil, erinmasdan, mahorat bilan tasvirlaydi: “Menga esa havo yetishmas, to'lg'onar, og'zimni sassiz ochib-yumib, kimnidir yordamga chaqirar, tezroq bu iskanjadan xalos bo'lib, erkin, ozod, orqayin nafas olgim kelardi. Havo yetishmas, bo'g'ilib, holsizlanardim. Og'zi bilan suvga yiqilib tushgan, qo'li orqasiga bog'langan odam nafas olish uchun jonhalak tipirchilaydi. Undan beshbattar ahvolda edim, bu yerga qachon kelgandim, qaysi dunyo bu, deya o'ylardim”[2]. Adabiyotshunos Mirzaaxmad Olimov qayd qilganidek, “Tragik situatsiya o'zida tragik kolliziyani mujassamlashtirgan, qahramonni xatarli azob - uqubatlariga, iztiroblarga va qaysidir ma'nodagi halokatga duchor etadigan vaziyatdir” [3] Bu xarakterli fikr Salomat Vafoning unutilgan ayoli shaxsiyatiga ham tegishlidir. Binobarin, inson psixologik dunyosi tragizm bilan bevosita bog'liq. Dahshatli jismoniy og'riq azobi bilan ruhiy

qiynoq qo‘shilib qahramonni ruhiy muvozanatdan chiqarib yuboradi. U hatto qaysi dunyoda ekanligini ham anglay olmay qoladi, ya‘ni tirikmi, o‘likmi? O‘zini xuddi do‘zaxga tushgandek his etadi. Hikoyaning xuddi shu joyida ayolda jismoniy og‘riqdan (ukol ta‘sirida sezilmagan) ham ko‘ra vijdon azobi kuchli namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Aybdorlik hissi, dunyoga kelishga haqqi bor bir go‘dakning qotiliga aylinishdek jinoyatni sodir etgan qahramon “...gursillab do‘zaxga tushdim. Endi do‘zax olovlarida nech o‘n minglab yonaman, gunohga botgan tanam necha yuz ming yillab burqsiydi” deb vijdon azobiga qoladi. Shu topda uning boshi uzra besh yil oldin vafot etgan onasining ko‘lankasi keladi. Abort jarayonida ayolning qalbidan kechgan favqulodda qarama-qarshi tuyg‘ular, ya‘ni qora olomonning uning izidan quvishi, “ hayda uni, mahallani harom... xarob etdi” degan so‘zlari, onasining unga istehzomuz “Assalom” deyishi; “Baribir o‘z aytganingni qilibsana-da?!” degan ta‘na-dashnoma, g‘oyibona ayblovlar, kutilmagan la‘nat eshitishlar, va nihoyat, “Man sanga qurbon o‘lam” qo‘shig‘ining eshinishi jarayoni psixologik jihatdan silsilaviy ravishdagi adabiy rakursda o‘z ifodasini topgan. Insonning dard-alamlari me‘yordan ko‘payib ketganda, uning hissiyatlarini so‘z bag‘riga joylash mushkullashadi. Ana shunda kuy yordamga keladi. Yozuvchi ayol shaxsiyatining ruhiy zarbalar tizimini psixologik talqinlar hisobiga borgan sari kuchaytirib boradi.

Hikoyada “pichoq” detali katta rol bajargan. Pichoqning vazifasi ma‘lum. Hikoya voqealari tizimida psixologik xotira uslubi yetakchilik qiladi. Qahramonning xotirasiga otasining “pichoqda yovuz kuch bor” degan gap keladi. Xayolida kechayotgan turli xil xotiralar, tasavvurlar mobaynida uning vujudida uzra ulkan pichoq tinimsiz jadallagancha o‘z vazifasini ado etardi. Go‘dakning barcha tana a‘zolarini birin-ketin kesib tashlayotgan pichoqni ortga qaytarishning iloji yo‘q. Oradan million yil o‘tgandek tuyuldi. Jarayon tugadi va qahramon sekin-asta o‘ziga kela boshlaydi. Vaqt - oliy hakam. Ayol tanasini tark etgan ruhi yana vujudiga qayta boshlaydi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunos olim U.Jo‘raqulovning ta‘kidlashicha, “insoniyatga ruh haqida juda kam bilim berilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ko‘p bora ta‘kidlanganidek, insonshunoslik, ya‘ni, ruhshunoslik vazifasiga loyiq birgina talqin vositasi bor, u ham bo‘lsa faqat adabiyotdir. Shu bois, hatto butun dunyoga mashhur Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm, J.Lakan kabi psixoanalitiklar ham, yaratilgan tadqiqot obyektlari tirik odam bo‘lishiga qaramasdan, o‘z xulosalarida badiiy adabiyotga tayanadilar”[4]. Darhaqiqat, ruh deganda aniq bir tasavvurga ega emasmiz. Ammo “Unutilgan ayol”ni ruhi tark etganligini matn orqali aniq his eta olamiz. Bu ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat.

Adabiyotshunos I.G‘aniyevning iborasi bilan aytganda “Vijdon azobi – surgun jazosidan ham og‘irroqdir”[5]. O‘ziga kelgach, pushaymonlik, qilgan ishidan afsuslanish, hayotining beg‘ubor davrlariga qaytish istagi, vijdon azobidan qutulishni xohlaydi: “Men tezroq qutulishni, bu yerdagi O‘zimni (1997-yil 28-maydagi O‘zimni) unutilishni istardim” [2] Iste‘dodli adib Nazar Eshonqulning fikricha: “O‘qiganimiz ham, o‘qitganimiz ham o‘zimiz. Biz bilan xayrlashuvchi ham o‘zimiz, kutib turgan ham o‘zimiz. O‘zimizdan qochib o‘zimizga boramiz. Hayotimiz, fikrimiz ana shu o‘zliklar orasida shakllanadi, o‘zliklar orasida kechadi va sarf bo‘ladi. Biz botindan va zohirdan o‘zimizni izlab yuramiz. Ular orasidagi masofa juda yaqin va juda uzoq, chunki u mendan “men”gacha bo‘lgan bepoyonlikni qamrab oladi...” [6] Yoshligiga, beg‘ubor damlariga qaytishni istagan ayol xuddi o‘zligini izlayotgan odamga o‘xshaydi. Ammo u yana o‘z “men”iga qaytdi, zero, o‘zga yo‘l yo‘q edi: Yana men o‘zimizni unutilib qo‘ygandim. Endi o‘zimizning kimligimni sira eslolmasdim” [2].

Hikoyaning oxirgi abzatsidagi mazkur jumla ayolning qanday holatda va kim ekanligini ochib bergan. Unutilgan ayol, aslida o‘zligini yo‘qotgan bir kimsa. U ming hozirgi holatidan qochishni, uzoqlashishni istasa-da, buning iloji yo‘q. U endi istasa-da, hech qachon avvalgi holiga qaytolmaydi, bir umr vijdon azobida qovrilishga mahkum bo‘ldi: “Butun tanam, o‘ttiz yildan beri mavjud vujudimning har bir uzvi, har bir a‘zoyim go‘dak uchun motam tutardi” [2] Endi unga qilmishidan, qotilligidan, farzandkushligidan beixtiyor adadsiz pushaymonlik chekish qismati bir umrlik hamroh bo‘ladi.

Q.Yo‘ldoshev o‘zining “Yoniq so‘z” kitobiga kirgan “Kichik janrdagi katta izlanishlar” maqolasida 2001-yilning eng esda qoladigan hikoyalari Salomat Vafoning “Unutilgan ayol” asari ekanligini aytadi: “Salomat Vafo o‘z asarlarida so‘zni avaylab, puflab ishlatmaydi. Kuydiruvchi so‘zni ham, muzlatuvchi so‘zni ham o‘rni kelsa, ayamay qo‘llayveradi. Shuning uchun ham uning qalamidan chiqqan timsollar bir qadar sovuqroq, bir muncha yoqimsizroq bo‘ladi [2].

Xulosa va takliflar. Bugungi nasrimizda S.Vafoning o‘ziga xos o‘rni, o‘z aytar so‘zi bor. Adiba asarlarining aksariyatida ayol ruhiy kechinmalari, ko‘ngil jilvalariga e‘tibor kuchli, qalbida bir dunyo orzu tilaklari, intilish niyatlari bo‘lgan har biri o‘ziga xos qahramonlar tasvirlanganligi jihatidan ular o‘zaro mushtaraklik va alohidalik kasb etadi. Salomat Vafo insoniy xarakterlarning fojiasini ko‘rsatishga ko‘proq ahamiyat qaratadi. Salomat Vafo ijodining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har bir asarda obrazlarni real talqin qilganda qahramonning ruhiy kechinmalarini izohlaganda adabiy jarayonni ishlatishda real holatini saqlab qolgan. Hikoyada ayolning fojiasi bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatilganligini, adib mahoratining yuksakligini ko‘rishimiz mumkin. S.Vafo odamlararo munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo‘lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko‘pincha o‘ylovchi, fikrovchi, ma‘nan baland, nozik tuyg‘ular egasi bo‘lgan insonlar. Adiba kitobxon didining yuksakligi, sezimlarining ingichkaligi, so‘z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg‘ularni moddiylashtirish, har bir so‘zni joyida qo‘llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida so‘zlash, chigal o‘ylar-u muham iztiroblar, beadoq ishtibohlar haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. S.Vafo nasrining falsafiy mohiyati teran, insonparvarlik mazmuni chuqurdir. Adibaning hayotiy illatlar barham topishiga umidi kuchli. Shu boisdan ham noroziligini keskin qutbiy munosabatda ifodalashga intiladi.

ADABIYOTLAR

1. Қ.Йўлдошев. Ёниқ сўз. - Тошкент, Янги аср авлоди, 2006.
2. Саломат Вафо. Қора бева. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2009.
3. Олимов М. Фожиавий пафоснинг айрим ўзига хосликлари. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2005 йил, 3-сон, 6-бет.
4. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015.
5. Ғаниев И. Достоевскийни тушуниш ёки мангу бедорлик сири. – Т.: 2005, “ФАН”, 98-бет.
6. Назар Эшонкул. Мендан “Мен”гача. -Тошкент, Академнашр, 2014.